

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

SOBIROV BEKZOD NIZOMBOY O‘G‘LI

**SHE‘RIY MATN O‘ZBEKCHA TARJIMASIDA BADIY MAHORAT
MASALASI (I.YUSUPOV IJODI MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии(PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy(PhD) on philological
sciences**

Sobirov Bekzod Nizomboy o‘g‘li

She’riy matn o‘zbekcha tarjimasida badiiy mahorat masalasi (I.Yusupov ijodi
misolida)..... 3

..

Собиров Бекзод Низомбой ўғли

Проблема художественного мастерства в узбекском переводе
поэтического текста (на примере творчества И. Юсупова)..... 2
3

Sobirov Bekzod Nizomboy o‘g‘li

The issue of artistic mastery in the uzbek translation of poetic texts (a case
study of I.Yusupov's works)..... 4
7

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 5
1

**QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.04.2022.Fil.20.07 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

QORAQALPOQ DAVLAT UNIVERSITETI

SOBIROV BEKZOD NIZOMBOY O‘G‘LI

**SHE‘RIY MATN O‘ZBEKCHA TARJIMASIDA BADIY MAHORAT
MASALASI (I.YUSUPOV IJODI MISOLIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Nukus – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2021.2.PhD/Fil1844 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (<https://karsu.uz>) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Duysenbaev Olimjon Ismailovich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Nizamatdinov Jengisbay Mnajdatinovich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Matyakupov Sa'dulla Gaipovich
filologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Qoraqalpoq davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.04.2022.FIL.20.07 ilmiy kengashning 2025-yil « 10 » 1X soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel: (99861) 223-60-78; e-mail: karsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Qoraqalpoq davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (357 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 270100, Nukus shahri, Ch.Abdirov ko'chasi, 1-uy. Tel: (99861) 223-60-78).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 19 » VIII da tarqatildi.
(2025-yil « 19 » VIII dagi 17 raqamli reestr bayonnomasi.)



M.S.Kudaybergenov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

J.E.Seytjanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy
kotiibi, filologiya fanlari nomzodi, professor

G.A.Qurbaniyozov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda XX asr oxiri - XXI asrning boshlarida badiiy adabiyot murakkab davrda yuz bergan ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotdagi tub o'zgarishlarni aks ettiradi. Bugungi kunda adabiyotshunoslik va adabiy tanqidchilik badiiy tizim taraqqiyotida vujudga kelgan keskin burilishlar mohiyatini anglash hamda baholash vazifasiga kirishdi. Unda adabiyotning o'z-o'zini shakllantirishga moyilligi, tasvirda mustaqillik salmog'i oshishi, ruhiy tahlil va uslubiy izlanishlar maydoni kengayishi, mohiyatni teran falsafiy idroklash malakasi kuchayganligi bo'rtib ko'rinadi. Mavjud holat, voqelikni anglashga bo'lgan intilishlarni yangi ifoda yo'sinida baholashga zamin hozirlaydigan tamoyillar hosil bo'lishi, real manzaralar muqobil modellari maydonga chiqishi bilan tavsiflanmoqda.

Dunyoda badiiy, ilmiy yutuqlarni ommalashtirish, xalqlar o'rtasidagi madaniy aloqalarni mustahkamlash, muayyan millatga xos sara badiiy adabiyot namunalarini boshqa tilga tarjima qilish orqali ijodkorning badiiy mahoratini to'la ifodalab berish, asliyatda qanday bo'lsa, badiiy tarjimada ham shu mazmun shirasini saqlab qolishga erishish tamoyillari ishlab chiqilgan. Turkiy tillarda yaratilgan asarlarni qardosh tillarga tarjima qilish bilan bog'liq muammolar ham o'z yechimini kutib turgan bir paytda tillar o'rtasidagi mushtaraklik va tafovutlar ham namoyon bo'la boshlaydi. Asliyat va tarjima matnlarining nafaqat semantik, balki kommunikativ-funksional xususiyatlarini ham tahlil qilish, til tizimi va uning birliklariga nisbatan statik yondashuvdan ko'ra dinamik yondashuvni afzal ko'rgan holda, ushbu jarayonni qiymat nazariyasi nuqtai nazaridan yoritish muhim metodologik ahamiyat kasb etadi. Xususan, tarjima jarayonida psixolingvistik qoliplarning ishtiroki va ularning kognitiv jarayonlar bilan bog'liqligi nazariy jihatdan asoslab berilishi tarjima faoliyatining chuqur kognitiv tahliliga yo'l ochadi. Bunday yondashuv tarjimashunoslikning kognitiv yo'nalishini yanada rivojlantirish, uning ilmiy doirasini kengaytirish hamda tarjima jarayonida qaror qabul qilish mexanizmlarini chuqurroq tushunishga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi bosqichida "O'zbekiston Respublikasini ilm-fan va intellektual salohiyat yo'nalishida yanada rivojlantirishga qaratilgan Harakatlar strategiyasining Davlat dasturida ilmiy-tadqiqot ishlarini rag'batlantirish va innovatsion faoliyatni takomillashtirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilab qo'yilgan"¹i o'zbek tarjimashunosligi oldiga ham yangi, mas'uliyatli vazifalarni qo'ymoqda. Xususan, ushbu jarayon doirasida she'riy matnlarning o'zbek tiliga badiiy jihatdan mukammal tarjima qilinishi, tarjimada badiiy mahorat masalalarini tahlil qilish, lingvistik va kommunikativ qoliplar ishtirokini aniqlash, tarjima me'yorlari hamda uning semiotik mohiyatini ochib berish dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri sifatida qaralmoqda. Bu boradagi tadqiqotlar nafaqat jahon tarjimashunosligida hali to'liq yechimini topmagan muammolarga ilmiy yondashuvni ta'minlaydi, balki tarjimaning madaniy, konseptual va falsafiy

¹ Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. -T.: O'zbekiston, 2018.

xususiyatlarini anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar kontekstida tahlil etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-maydagi 376-son “Jahon adabiyotining eng sara namunalarini o‘zbek tiliga hamda o‘zbek adabiyoti durdonalarini chet tillariga tarjima qilish va nashr etish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish”ning ustuvor yo‘nalishi doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tarjima masalalari, she’riy matn o‘zbekcha tarjimasida badiiy mahorat masalasini tadqiq qilish tamoyillari va me‘yori, kommunikativ tarjimashunoslik muammolari jahon va o‘zbek tarjimashunosligida keng tadqiq etilgan. Xususan, M.Garseva, A.Y.Ivleva, D.Y.Kostaryov, V.N.Shevchuk, M.A.Kunilovskaya, E.Prunch, V.V.Sdobnikov, R.A.Varley, J.C.Ketford, A.Jensen, V.Lorscher, D.Robinson, M.R.Shlezinger, R.Yaakeslaynen, G‘.Salomov, I.K.Mirzayev, Sh.Safarov, M.Xolbekov, G‘.X.Rahimov, Q.Musayev, X.K.Xamrayev va boshqa olimlar tadqiqotlarida tarjimada ekvivalentlik, tarjima sifatini baholash, badiiy tarjima yechimlari, tarjimada asimmetriya hodisasi, tarjima jarayoni tahlili, tarjima kognitiv jarayoni hamda tarjima strategiyalariga ta’sir qiluvchi omillar, tarjimaga funksional-kommunikativ yondashuv masalalari, shuningdek, tarjimon shaxsi, tarjimada kognitiv mexanizmlar, tarjimaning pragmatik aspektlari kabi masalalar atroflicha o‘rganilgan². Tarjima jarayonida psixolingvistik qoliplar ishtiroki, tarjimaning

² Гарцева М. Asymmetries of Translation. – Firenze, Italy, 2014. – P. 237-245; Ивлева А.Ю. Категория эквивалентности в отечественном и западном переводоведении. Вестник СУ, № 4 (43). – Самара, 2017. – С. 71-77; Костарёв Д.Ю. Симметрия и асимметрия значений полисемантических глаголов в английском и русском языках при переводе с английского на русский язык. – Томск, 2016; Шевчук В.Н. Когнитивный подход к анализу процессов устного перевода // Сб. науч. трудов. № 5. – Москва:

lingvomadaniy kodlari rus va jahon tarjimashunosligida N.N.Dzida, S.L.Budayeva, D.V.Balaganov, N.G.Gonchar, T.A.Volkova, I.V.Voynich, P.P.Dashinimayeva, Ye.E.Kalish, K.I.Leontyeva, Z.D.Lvovskaya, Yu.N.Marchuk, A.G.Minchenkov, V.A.Nuriyev, A.A.Pogosov, I.V.Privalova, I.Ubojenko, R.V.Usov, T.A.Fesenko, R.T.Bell, A.Chesterman, N.Chomskiy, J.Dansett, E.Gentsler, E.A.Gatt, B.Hatim, D.Katan, I.Meyson, A.Noybert, D.D.Steynberg, G.Turi tomonidan o'rganilgan bo'lib³, mazkur olimlarning ishlarida tarjimani qoliplashtirish, yozma tarjimada

ВУ, 2002. – С. 331; Куниловская М.А. Классификация переводческих ошибок // Проблемы теории и практики перевода, № 16. – Нижний Новгород, 2013. – С. 59-71; Прунч Э. Пути развития западного переводоведения. От языковой асимметрии к политической. – Москва, 2015. – 513 с.; Сдобников В.В. Оценка качества перевода. Коммуникативно-функциональный подход. Монография. – Москва: Флинта, 2015. – 107 с.; Сдобников В. Перевод и коммуникативная ситуация. Монография. – Москва: Флинта, 2015. – 461 с.; Catford J.C. A Linguistic Theory of Translation. – London: Oxford University Press, 1965; Varley R.A. Word Frequency Predicts Translation Asymmetry // Journal of Memory and Linguistics. – San Diego, 2017. – P. 49-67; Jaaskelainen R. Tapping the Process. An Explorative Study of the Cognitive and Affective Factors Involved in Translating. – Joensuu, Finland: University of Joensuu, Publications in Humanities, 1999. – 268 p.; Jensen A. The Effects of Time on Cognitive Processes and Strategies in Translation / A.Jensen. Copenhagen Business School, Faculty of Modern Languages. – Copenhagen, 2000. – P. 44; Lorsch W. Translation process analysis // Translation and Knowledge. SSOTT IV. – Turku: University of Turku: Centre for Translation and Interpreting, 1993. – P. 209; Robinson D. Becoming a translator: An introduction to the theory and practice of translation. – Abingdon Oxon, UK: Routledge, 2020. – P. 76-77; Shlesinger M. Interpreting as a Cognitive Process: How Can We Know What Really Happens? – Amsterdam: John Benjamins, 2000. – P. 3-16; Саломов Ф. Таржима санъати. – Тошкент, 1985. – 263 б.; Мирзаев И.К. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста. Дисс... доктора филол. наук. – Ташкент: Институт языкознания АН УзССР, 2002. – 472 с.; Сафаров Ш. Когнитив таржимашунослик. Монография. – Самарканд, 2019. – 354 б.; Сафаров Ш. Таржимоннинг лисоний шахс сифатида бажарадиган фаолияти // Иностранная филология: язык, литература, образование, 3(3) (68). – Самарканд, 2018. – Б. 9-20; Холбеков М. Бадий таржима: муаммо ва ечим // «Ўзбекистон адабиёти ва санъати» газетаси, 2007; Рахимов Ф.Х. Таржима назарияси ва амалиёти. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2016. – 176 б.; Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Тошкент: Фан, 2005. – 352 б.; Хамраев Х.К. Воссоздание национального колорита произведений узбекской прозы во французских переводах (на материале произведений Айбека и А.Каххара). Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1998. – 29 с.

³ Дзида Н.Н. Асимметрия концепта в свете когнитивно-деятельностного подхода в переводоведении на материале романа М.А. Булгакова “Мастер и Маргарита” и его переводов на английский язык). Дисс... канд. филол. наук. – Тюмень, 2010. – 279 с.; Будаева Ц.Л. Моделирование перевода паремий в аспекте актуализации прескриптивного потенциала (на материале бурятских, английских и русских коррелятов). Дисс... канд. филол. наук. – Улан-Удэ, 2021. – 148 с.; Балаганов Д.В. Когнитивные процедуры понимания в письменном переводе. Дисс... канд. филол. наук. – Москва, 2002. – 202 с.; Войнич И.В. Стратегии лингвокультурной адаптации художественного текста при переводе. – Пермь, 2010. – 229 с.; Волкова Т.А. От модели перевода к стратегии перевода / Т.А. Волкова. – Москва: Флинта, 2016. – 304 с.; Гончар Н.Г. Асимметрия в переводе художественного текста: этнолингвокультурный аспект: Дисс. ... канд. филол. наук. – Тюмень, 2009. – 254 с.; Дашинимаева П.П. Теория значимости как основа психонейролингвистической концепции непереводимости. Дисс... доктора филол. наук. – Улан-Удэ, 2010. – 397 с.; Калиш Е.Е. Теоретические проблемы реконструкции дискурса в целях перевода. Дисс... канд. филол. наук. – Иркутск, 2013. – 185 с.; Леонтьева К.И. Когнитивно-семиотическая модель перевода: доминанты, перспектива, дискурс (на материале русских переводов произведений англоязычной литературы XIX-XX веков). Дисс... доктора филол. наук. – Тверь, 2022. – 523 с.; Львовская З.Д. Современные проблемы перевода. – Москва: ЛКИ, 2008. – С. 28; Марчук Ю.Н. Модели перевода. – Москва: Издат. центр “Академия”, 2010. – С. 78-83; Минченков А.Г. Когнитивно-эвристическая модель перевода (на материале английского языка). Дисс... доктора филол. наук. – Санкт-Петербург, 2008. – 296 с.; Нуриев В.А. Психоллингвистический статус грамматических преобразований при переводе

idrok etishning badiiy mahorat tamoyillari, badiiy matn tarjimasida lingvomadaniy adaptatsiya strategiyalari, qiymat nazariyasining tarjima qilinmaslikning neyropsixolingvistik konsepsiyasi asosi sifatidagi roli, tarjima qilish maqsadida diskursni qayta yaratish, tarjimaning kognitiv-semiotik qolipi, badiiy matn tarjimasida grammatik o'zgartirishlarning psixolingvistik statusi masalalari keng va chuqur tadqiq etilgan.

Mamlakatimizda Izzat Sulton, O.Sharafiddinov, M.Qo'shjonov, N.Karimov, G'.Salomov, M.Rasuliy, J.Sharipov, R.Abdurahmonov, B.Nazarov, K.Quramboyev, F.Sapayeva va G.Quramboyeva singari olimlar talqinida muammo u yoki bu jihatlari tahlilga tortilgan⁴. Mavjud ishlar tarjima san'ati bo'yicha umumiy ilmiy tushunchalarni shakllantiradi. Ammo, ushbu sohada Ibrayim Yusupov asarlari o'zbekcha tarjimalari qiyosiy jihatdan hali maxsus o'rganilmagan.

Mazkur dissertatsion ishda she'riy matn o'zbekcha tarjimasida badiiy mahorat masalasi Ibrayim Yusupov ijodi misolida ilmiy tadqiq etiladi, badiiy tarjima jarayonida psixolingvistik qoliqlar ishtirokining lingvomadaniy va lingvofalsafiy omillar bilan shartlanganligi tahlil qilinib, tarjima faoliyatining kognitiv jarayon sifatidagi xususiyatlari hamda u hodisa sifatida qanday ontologik va gnoseologik mazmunga ega ekani ilmiy asosda yoritilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Qoraqalpoq davlat universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasining "O'zbek-qoraqalpoq adabiy aloqalari" mavzusida olib borayotgan istiqbolli ilmiy tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ijodiy dunyoqarash o'ziga xosligi va she'riy matn tarjimasi yaxlitligini Ibrayim Yusupov lirikasi timsolida nazariy umumlashtirish, uni tarjimada to'g'ri aks ettirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

I.Yusupov she'riyati tarjimasida orqali qardosh tillar aro tarjimaning o'ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

she'riy matn tarjimasida ijodiy an'ana va ifoda uslubi o'ziga xosligi umumiy mohiyati hamda uslubiy xususiyatlarini ko'rsatish;

Ibrayim Yusupov she'riyati tarjimasida asliyat ruhiyati va nusxa qayta tiklash taomillari maqomini belgilash;

tarjimada badiiy yaxlitlik va ifoda takomili aloqadorligini tayin etish;

художественного текста. Дисс... канд. филол. наук. – Москва, 2005. – 266 с.; Погосов А.А. Динамика переводческого процесса: критерии лингвокогнитивного описания. Дисс... канд. филол. наук. – Москва, 2011. – 210 с.;

⁴ Salomov G. Boboyev T. Tarjima san'ati. -T.: Adabiyot va san'at, 1973.-B. 204; Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi, -T: O'qituvchi, 2005.-B. 264; Nazarov B. Bu sehrli dunyo. -T.: Adabiyot va san'at, 1980.-B. 176; Sharafiddinov O. Hayot bilan hamnafas.. -T.: Yosh gvardiya, 1983. B. 216; Salomov G. Rus tilidan o'zbekchaga maqol, metal va idiomalarni tarjima qilish masalasisa doir.-T.: Fan, 1961; Isomiddinov Z. Turkiy epos va tarjima masalalari Toshkent Universitet, 1995, Umuroy H. Badily irod asoslari. -T.: O'zbekiston, 2001; Sarimsoqov B.. Badiylik asoslari va mezonlari. -T.: 2004; Solijonov Yo. Nutq va uslub.-T.: Cho'lpon, 2002; G.Quramboyeva O'zbek va qoraqalpoq adabiy aloqalari. Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi Nukus-2023

qardosh tillardan tarjimada aldoqchi soʻzlar, soxta va tusmol ekvivalent hamda paronimlar oʻrnini belgilash;

badiiy tarjimada soʻzni qanchalik oʻrinli yoki nooʻrin qoʻllaganini tadqiq qilish orqali tarjimonlarning mahorati va ayrim kamchiliklarini ochib berish.

Tadqiqotning obyektini sifatida milliy istiqlol davri qoraqalpoq lirikasida oʻz ijodiy maktabini yaratgan hamda milliy madaniyat taraqqiyotiga munosib hissa qoʻshgan shoir Ibrayim Yusupovning “Soʻfitoʻrgʻay salomi” (2015), “Tanlangan asarlar” (2019), “Ibrayim Yusupov” (2022) kabi sheʼriy toʻplamlari tanlangan.

Tadqiqot predmetini ijodkor dunyoqarashi oʻziga xosligi, tarjimada sheʼriy ifodani qayta tiklash mezonlari hamda asliyat va nusxa aloqasini tipologik aspektda yoritish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini har tomonlama yoritish maqsadida qiyosiy-tarixiy, tavsifiy (deskriptiv) hamda statistik tahlil kabi zamonaviy ilmiy metodlardan kompleks tarzda foydalanilgan boʻlib, ular orqali mavzuning nazariy asoslari, amaliy koʻrinishlari va rivojlanish dinamikasi chuqur tahlil etilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

oʻzbek tarjimashunosligi va estetikasida qardosh tillar sheʼriyati tarjima nazariyasi, asliyat va tarjima munosabati, sheʼriy matnni qayta tiklash va ifoda uslubi baʼzi qirralarining oʻziga xos jihatlari ochib berilgan;

matnda asliyat va tarjima matnlari oʻrtasidagi ekvivalentlik turli darajalarda namoyon boʻlishi, til va madaniyatlar oʻrtasidagi farqlar tufayli intralingvistik va ekstralingvistik unsurlar tarjimada tengday saqlanib qolmasligi sheʼriy matnlar tadqiqi asosida aniqlangan;

sheʼriy matnning shakliy va maʼno jihatidan tuzilishi, manbaa til va tarjima tilining oʻzaro bogʻliqlik nisbati, tillararo madaniy kodlar munosabati, tillarning oʻziga xos grammatikasi va leksik tuzilmalaridagi tafovutlar kabi xususiyatlar matnni idrok etishga taʼsir koʻrsatadigan omil ekanligi, tarjimon asliyat matnining funksional jihatdan muhim elementlarini tanlash tamoyili asosida belgilashi va iyerarxiya tamoyili asosida mazkur elementlarning ustuvorligini hal qilishi lozimligi isbotlangan;

tarjimonning oʻquvchida asliyat matnida namoyon boʻlgan emotsional-estetik tuygʻularni uygʻota olishi, tarjima matni retsipyentiga oʻtkaziladigan emotsional-estetik taʼsirning asliyat matnidagi aynan shu taʼsirga mutanosibligini oldindan koʻra bilishi badiiy matnlar tarjimasi sifatini oshiruvchi omil boʻlishi dalillanib, badiiy tarjima jarayonida til egalari tafakkuridagi tafovut, til birligini nutqda qoʻllashdagi turli tendensiyalarining mavjudligi lingvomadaniy moslashuv strategiyasining eng samarali usul ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

qardosh tillardan tarjima masalalari hamda mutarjim mahoratini tadqiq qilishda zaruriy ilmiy-nazariy manba boʻladi;

shoir sheʼrlari tarjimalarida tarjimonlarning orfografiya va orfoepiyadagi oʻzaro oʻxshash soʻzlar tufayli chalgʻish holatlarining oldini olishga koʻmaklashadi;

oliy o'quv yurtlari tizimida "Turkiy xalqlar adabiyoti tarixi", "Tarjimashunoslik muammolari" o'quv kurslari bo'yicha darslik va o'quv qo'llanmalari yaratishda asos bo'ladi;

turkiy xalqlar adabiyoti, tarjima nazariyasi bo'yicha ma'ruzalar o'qish, maxsus kurslar o'tishda maxsus o'quv-uslubiy qo'llanmalar yozish uchun xizmat qiladi;

qardosh tillardan tarjimalarga xos xususiyatlarning talqinlari mushtarak til, tarix, madaniyat, urf-odat va adabiy an'analar rivoji va takomilini ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotda Ibrayim Yusupov she'rlari o'zbekcha tarjimalarining qiyosiy tahlili asosida qardosh tillardan tarjima muammolari kompleks o'rganilib, nazariy xulosalar chiqarilganligi, tadqiqot qardosh tillar tarjimashunosligi sohasiga asoslanganligi, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tarjimashunoslik, lingvomadaniy, emotsional va kognitiv munosabatlar, inson tafakkurining atrof-olam bilan munosabati manzarasining lisoniy ifodalanishi, konsept va uning turlari kabi masalalar tadqiqida, turli izohli lug'atlarni yaratishda vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, unda olingan ilmiy xulosalar va nazariy asoslamalardan "Badiiy tarjima asoslari", "Adabiyotshunoslikka kirish", "Badiiy tahlil asoslari", "Uslubiyat", "Matn tahlili" hamda "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kabi oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan fanlar bo'yicha darsliklar, o'quv qo'llanmalari va metodik tavsiyalar yaratishda samarali foydalanish imkoniyati belgilangan. Ushbu ilmiy asoslangan yondashuvlar o'quv jarayonining mazmunan boyishiga, talabalarning tarjimashunoslikka oid bilim va ko'nikmalarini chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. I.Yusupov she'rlari o'zbekcha tarjimalarining qiyosiy tahlili, qardosh tillardan tarjima masalalari tahlili jarayonida olingan natijalar asosida:

o'zbek tarjimashunosligi va estetikasida qardosh tillar she'riyati tarjima nazariyasi, asliyat va tarjima munosabati, she'riy matnni qayta tiklash va ifoda uslubi ba'zi qirralarining o'ziga xos jihatlari hamda matnda asliyat va tarjima matnlari o'rtasidagi ekvivalentlik turli darajalarda namoyon bo'lishi, til va madaniyatlar o'rtasidagi farqlar tufayli intralingvistik va ekstralingvistik unsurlar tarjimada tengday saqlanib qolmasligiga doir ilmiy nazariy xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida amalga oshirilgan FA-043429-raqamli "Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental loyihada foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutining 2025-yil 17-apreldagi 225/1-son ma'lumotnomasi). Natijada adabiy jarayon va adabiy aloqalar, o'zbek tarjimashunosligi va estetikasida qardosh tillar she'riyati tarjima nazariyasida asliyat va tarjima munosabati tadqiqi boyitilgan;

she'riy matnning shakliy va ma'no jihatidan tuzilishi, manbaa til va tarjima tilining o'zaro bog'liqlik nisbati, tillararo madaniy kodlar munosabati, tillarning o'ziga xos grammatikasi va leksik tuzilmalaridagi tafovutlar kabi xususiyatlar matnni idrok etishga ta'sir ko'rsatadigan omil ekanligi, tarjimon asliyat matnining funksional jihatdan muhim elementlarini tanlash tamoyili asosida belgilashi va iyerarxiya tamoyili asosida mazkur elementlarning ustuvorligini hal qilishi lozimligiga oid xulosalar televideniye ko'rsatuvlarini tayyorlashda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi teleradiokanalining 2025-yil 15-apreldagi 05-22/215-son ma'lumotnomasi). Natijada badiiy tarjima va uning ahamiyatiga doir turkum ko'rsatuvlarni tayyorlash samaradorligi oshgan;

tarjimonning o'quvchida asliyat matnida namoyon bo'lgan emotsional-estetik tuyg'ularni uyg'ota olishi, tarjima matni retsiyentiga o'tkaziladigan emotsional-estetik ta'sirning asliyat matnidagi aynan shu ta'sirga mutanosibligini oldindan ko'ra bilishi badiiy matnlar tarjimasi sifatini oshiruvchi omil ekanligiga, badiiy tarjima jarayonida til egalari tafakkuridagi tafovut, til birligini nutqda qo'llashdagi turli tendensiyalarining mavjudligi lingvomadaniy moslashuv strategiyasining eng samarali usul ekanligiga doir ilmiy xulosalardan Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyining ekspozitsiyalari tarjimalari adabiy qiymatini aniqlashda foydalanilgan (Berdaq nomidagi Qoraqalpoq adabiyoti tarixi davlat muzeyining 2025-yil 21-may kungi 01-02/03-116-son ma'lumotnomasi). Natijada Ibrayim Yusupov she'riyati va o'zbek-qoraqalpoq adabiy aloqalari, adabiy jarayon va qiyosiy tarjimashunoslikka doir ilmiy nazariy xulosalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida qilingan ma'ruzalarda jamoatchilik muhokamasidan o'ktazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda hamda 6 ta tezislarda nashr etilgan.

Ishning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 136 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslanib, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi, maqsadi, obyekti, predmeti, vazifalari, ilmiy yangiligi, nazariy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining joriylanishi yoritilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "She'riy asar tarjimasida ruhiy-emotsional holat ifodasi muhim omil sifatida" deb nomlangan. **Ilk fasli "Matn ruhiyati, ijodkor dunyoqarashi va ifoda uslubi yaxlitligi"** tarzida bo'lib unda o'zbek tarjimashunosligi bosib o'tgan tarixiy yo'l salmog'ini chamalash, erishilgan natija yoki yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarni nazariy umumlashtirish

muayyan qiymat kasb etadi.

Badiiy tarjima o‘z murakkabligi va mushkulligiga ko‘ra badiiy ijod bilan qariyb bir mavqeda turadi. Sababi, muallif iste’dodi va mahorati mahsuli bo‘lgan badiiy asarni tarjimondan boshqa til vositalari bilan asliga muvofiq qayta yaratishni talab etadi. Buning uchun, vazn, qofiya, radif, badiiy san’atlar, tasvir vositalari, ritm, ohang, muallif uslubi, milliy kolorit, personajlar nutqi, asarning grammatik uslubiy qurilishi, frazeolgizm, shakl va mazmun birligi kabi ko‘pdan ko‘p muammolarni hal qilishga to‘g‘ri keladi

“Tarjima tushunchasining ma’nosi juda keng. Bir tildan ikkinchi tilga badiiy adabiyot: she’r, dramatik va nasriy asarlar, fanning turli-tuman sohalariga doir ilmiy va ilmiy-ommabop kitoblar, diplomatiya hujjatlari, rasmiy qog‘ozlar, siyosiy arboblarning maqolalari va notiqnlarning nutqlari, gazeta materiallari, boshqa-boshqa tillarda so‘zlashuvchi, “tilmoch”ning xizmatiga muhtoj bo‘lgan kishilarning suhbatlari tarjima qilinadi, kinofilmlar o‘giriladi”.

Tarjima xalqlar o‘rtasidagi do‘stlik, qardoshlik va hamkorlik manfaatlariga, ular o‘rtasidagi iqtisodiy-siyosiy, ilmiy, madaniy va adabiy aloqalarning kengayishiga xizmat qiluvchi qudratli quroldir.

Tarjima qilinayotgan matn yoki nutqning qandayligidan qat’i nazar, bir tildan boshqasiga o‘girilayotgan har qanday tarjima uchun umumiy bo‘lgan ikki holat bor:

1. Tarjimonning maqsadi – asl nusxa tilini bilmagan kitobxon (yoki tinglovchi)ni o‘sha asar matni (yoki og‘zaki nutq mazmuni) bilan iloji boricha to‘la, mukammal tanishtirish.

2. Tarjima qilish – muayyan til vositalari bilan bir karra ifoda etilgan narsani boshqa til bilan aniq va to‘la ifodalash demakdir (Tarjima – qayta ishlash, qayta hikoya qilib berish, qisqartirib bayon etish, nazira, tatabbu’, taqlid, har xil “adaptatsiya”lardan o‘zining xuddi ana shu aniqligi va to‘laligi bilan farq qiladi).

Tarjimada mukammallikka erishish qiyin. Zero, “Mukammal tarjima deganda, asl nusxani to‘liq aks ettiruvchi, unga muvofiq va u bilan tenglashadigan tarjima adekvat tarjima deyiladi”

Oleksiy Kundzich Iogann Volfgang Gyotening «Tarjima—bu qandaydir uchinchi bir adabiyot», degan fikrini sharhlab yozadi: «...Tarjima san’ati adabiy jarayonlarning butun murakkab, uzluksiz g‘oyaviy-badiiy diffuziyasi va oqibatnatijada milliy tasavvurlar, tushunchalar, dunyoni his etish va tafakkur tarzlarining shunday o‘zaro singishi, shubhasiz, xalqlar orasidagi aloqaning muhim ko‘rinishlaridan biridir»⁵.

She’riy matn tarjimasi ilmiy iqtidor va ijodiy izlanish omuxtalashuvidan hosil bo‘ladigan murakkab jarayon hisoblanib, unda mantiqiy butunlik marom va ohang birikuvini taqozolaydi. Yuksak iste’doddan san’atkorona mahoratga qadar qamraydigan uslublararo sintezda ikki shoir ifoda yo‘sini bir-biridan keskin farq qiladi. Aslida she’riy tarjimada bir tilda bunyodga keltirilgan ana shu manzara ikkinchi tilda qayta yaratilishi lozim. Shu bois she’riy tarjima, nasriy tarjimadan

⁵ Kundzich, Алексей Леонардович «Творческие проблемы перевода» (1973). В-146

farqli o'laroq, shoir-tarjimonning asari - boshqa bir muallifining ijod mahsuli hisoblanadi va u tom ma'nodagi ijodiy mehnat darajasiga ko'tariladi. Unda Ikki millat dunyoqarashi, ijodiy quvvat-hofizasi hamda estetik tanlov o'zaro muqoyasaga kirishadi, unda marom va ohang silsilasida ifodalanadigan ruhiy-hissiy butunlik bir-biriga nisbatan raqobat hosil qiladi, unda asliyatda jilolanadigan badiiy harorat ijodkor fitratida qayta tiklanadi, unda tasvir ruhiyati o'ziga xosligi badiiy mantiq bog'lamiga mustahkam zamin hozirlaydi.

Birinchi bobning "Munosabatli nutq tasvirida ohang hamda marom o'zaro mushtarakligi" deb nomlangan faslida badiiy asar tabiatida ijodkor ichki dunyosi namoyon bo'lishi ko'rsatilgan. Bu hodisa asar matni shakl imkoniyatlari orqali semantik spektrlar yaratishi tabiiy. Q.Yo'ldoshev fikricha: "She'r mohiyati inson ruhiy olamini moddiylashtirishdan iborat". Shunday ekan, badiiy matn dekorativ arxitektonikasi ham o'ziga xos g'oya tashishi aniq. Ijodkor asar uchun tanlangan material imkoniyati, g'oyasi va mo'ljalidan kelib chiqib, asar badiiy tafakkurini ramkaga soladi yoki badiiy asarning fasadini yaratadi. Aynan mana shu ramkalashtirish asar janri, shaklini yaratadi, binobarin, asar tilini ham shakllantiradi, asarning umumiy ko'rinishi uchun so'z material vazifasini bajaradi. She'rning vazn, qofiya, turoq, ritm, band kabi fasad elementlari uning spetsifikasini tashkil qiladi. Spetsifika asar g'oyasiga mos ravishda ma'lum lisoniy-g'oyaviy maydonda namoyon bo'lar ekan, uning o'zi ham g'oya tashiydi. Badiiy tilning mana shu munosabatlarini ochib berish badiiy asarning dekorativ til xususiyatlari zahirida yotadi. Badiiy asar namunasi dekorativ tabiati, ya'ni, uning adabiy tur, janr, uslub (metod), mavzu, motiv, xarakter, yo'nalish kabi qator tashqi va ichki faktorlari asarning ma'lum g'oyaviy holat tashishi uchun yo'nalish belgilaydi. Badiiy asarning tashiyotgan g'oyasi uning yuqoridagi xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq. Biroq ularni to'g'ri tushunib olish uchun, masalaning mohiyatini to'g'ri belgilash uchun nafaqat ijodkor, balki bevosita o'quvchi ham badiiy tilning aynan shu normativlaridan, ya'ni, asar mavzusi bilan bog'liq xususiyatlardan xabardor bo'lishi zarur. Bu borada, G.O.Vinokur fikri muhim o'rin tutadi: "Adabiy asar nafaqat badiiy tilning ifodasi, balki tilda aks etgan o'y-fikr va hissiyot ham ijtimoiy ifodasi sanaladi".

Davr ilg'or ijtimoiy maqsadini o'zining estetik idealiga singdirgan san'atkor voqelikni o'sha ideal nuqtayi nazaridan baholaydi. Baski, u mavjud voqelikdagi o'z idealiga davrining ilg'or maqsadiga muvofiq jihatlarni ma'qullaydi, unga nomuvofiqlarini qoralaydi. Faqat shu holdagina uni mafkuraga xizmat qildi deyish mumkin bo'ladi. Aks holda, agar ijodkor mafkuraning ko'r-ko'rona targ'ibotchisi bo'lsa, mavjud voqelikni ideal nuqtayi nazaridan xolisona badiiy tadqiq qilish va g'oyaviy-hissiy baholash o'rniga faqat voizlikni kasb qilsa, qilar ishi mafkurani madh etish-u o'z nazdida uning himoyachisiga aylanib qolsa - bilingki, u mafkuraning foydasi emas, aksincha, asl zarariga ishlayotgan bo'lib chiqadi.

Ikkinchi bob "Tarjimada asliyat va uni idrokda qayta tiklash tamoyillari" tarzida atalgan bo'lib ilk fasli "She'riy matn tarjimasida muallif badiiyatini saqlab qolish" deb atalgan. Bir xalqqa tegishli bo'lgan adabiyotni

boshqa xalq o'quvchisiga aslligini yo'qotmasdan yetkazib berish badiiy tarjimaning zimmasidadir. "Shu bois ham mazkur soha vakillarini biz haqli ravishda shoir-tarjimon deb ataymiz. Nasriy asarda syujet, kompozitsiya, konflikt, voqealar rivoji va albatta muammolar yechim bo'ladi. Ustoz Asqad Muxtor ta'biri bilan aytganda, tarjimon-chizmakash emas, rassomdek ijod qiladi va tarjimaning turli, jumladan, metonimik, transformatsiya usullari, implitsit (yashirin) ma'nolarni, eksplitsit (mufassal) bayon qilish yo'llari orqali muallif fikrini kitobxonga aniqroq yetkazishga intiladi. Ammo to'rt satr she'rdagi ohang va lirik kechinmani o'quvchi qalbidan joy oladigan darajada tarjima qilish yuqorida tilga olib o'tganimizdek, shoirona ilhom va mahoratni talab etadi"

Ma'lumki, bir otaga mansub tillarda, jumladan, turkiy tillarda so'zlashuvchi xalqlar bir-birlarining tiliga, asosan, tushunadi. Ammo har bir tilning o'zigagina xos bo'lgan qonuniyatlar mavjud. Ayrim narsa, predmet va hodisalarni bir xil so'z bilan atashsa-da, o'sha so'zlar u yoki bu tilda boshqa ma'noda qo'llanilishi mumkin.

Yaqin tillardan, xususan, turkiy tillarda so'zlar shaklan o'xshash bo'lsa-da, ma'no ottenkasi, qo'llanilish o'rni va vazifasiga ko'ra farq qiladi

Tarjimonlar o'zi tushunmagani tufayli o'xshashiga nisbat berib, mana shu ma'noni anglatsa kerak deb taxmin bilan tarjima qiladigan so'zlarni Z.Ismoiddinova "tusmol ekvivalentlar" deb ataydi. Olimaning yozishicha, "ayrim tadqiqotchilarni yaqin tillardan, xususan, yaqin tillarning biridan ikkinchisiga o'girish uzoq tillardan ag'darishga nisbatan birmuncha qiyin degan noto'g'ri xulosaga olib kelgan tarjima asarlari matnidagi xato va nuqsonlarning o'ndan to'qqiz qismini "soxta ekvivalentlar"ga o'xshagan, aslida esa agar shunday atash mumkin bo'lsa – "tusmol ekvivalentlar" tashkil qiladi. Chunonchi,

Yergeneksiz búl dunyanıń,

Házir yerkin bazarı kóp.

O. Hojiyeva tarjimasidagi "**Erkin bozor**" she'rida "**Yergenek**" (o'tovning ikki tomonga ochiladigan eshigi) so'zi o'zbekcha tarjimada quyidagicha beriladi:

Panjarasiz bu dunyoning

Hozir erkin bozori ko'p.

Ko'rinib turibdiki, bu yerda panjara va eshik bir biriga nisbatan yaqin so'zlar hisoblansa ham shoir anglatmoqchi bo'lgan ma'no tarjimon tomonidan to'laligicha ochib berilmagan. Bizning fikrimizcha bu misra quyidagicha tarjima qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi:

Bedarvoza bu dunyoning

Hozir erkin bozori ko'p.

Yoki "**ser solmoq**" – diqqat bilan qaramoq degani bo'lib, Ibrayim Yusupovning "*Aspang'a ser salip baqsan'*", ya'ni "*Osmonga diqat qilib boqsang*" ma'nosidagi misrasini **M.Ali** "*Ko'kga sehr solib boqsang*" tarzida mantiqsiz va xato tarjima qilgan edi.

Shoirning "**Norasta**" (**Norasida**) deb nomlangan she'rida "*Náreste, ol-adamniń yeń úlkeni,*" misrasi bor. Uni R.Sodiqova "*Norasta bu – odaming eng ulkani*" deb tarjima qiladi. Aslida o'zbek tilida "**Norasta**" so'zi mavjud emas.

Shoira bu she'ni tarjima qilishda she'r ritmini saqlab qolish maqsadida **“Norasida”** so'zini **“Norasta”** shaklida qisqartirib qo'laydi.

Yaqin tillardan tarjimadagi eng katta illat tarjimonlarning ko'pincha nafaqat so'zlar, iboralar, satrlar va bandlarni, hatto she'rlarni ham asosan aynan o'tkazib qo'yish yo'lidan borishlaridir. Albatta, turkiy xalqlar bir-birlarini tarjimasiz ham deyarli tushunganlari uchun bu usul ko'p hollarda o'zini oqlaydi: ko'pincha butun-butun she'rlar ayrim so'z va jumlagina o'zgartirilib, shundoqqina o'zbek tiliga ko'chirib qo'ya qolinadi. Albatta, mana bunday o'rinlarda bu o'zini oqlaydi:

*Kiyikler suw isher saydan
Gaz-úyrek kólden suw isher.
Al, adamnıń kewli qaydan?*

Kewil kewilden suw isher.

Muhammad Ali tarjimasi:

*Kiyiklar suv ichar soydan,
G'oz-o'rdak ko'ldan suv ichar.
Odamning-chi, ko'ngli qaydan?
Ko'ngil ko'ngildan suv ichar.*

Ko'rinib turibdiki, **“Ko'ngil ko'ngildan suv ichar”** she'rining mazkur bandidagi barcha so'zlar shundoqqina o'zbekchaga ko'chgan.

Ibrayim Yusupov she'rining quyidagi bandi tarjimasida esa juz'iy o'zgarishlarnigina ko'ramiz:

*Bir alım kelinshek eplep erinbey,
Ayyemgi qorganniń tekshelerinen,
Sút uyıtıp ketken gúzelerindey,
Tas qutılardı alıp atır birimlep.*

Zulfiya tarjimasi:

*Ko'p qadim qo'rg'onning tokchalarini
Mehrlı, ardog'lı o'rganar juvon.
Naq qatıq uyıtgan xurmachalarnı
Olganday olar har qutını undan.*

Bu yerda tarjimon tarjimaga ancha ijodiy yondoshgan. Misralardagi so'zlar o'zbek tilidagi boshqa so'zlarga almashtirilgan hamda birinchi va uchinchi misralar o'rnini almashtirgan – natijada ikkinchi va uchinchi misralararo mustahkam bog'liqlik vujudga kelgan. Tarjima amaliyotida bunday o'zgarishlarga yo'l qo'yiladi. Fikr mantig'idan kelib chiqib, tarjimon tarjima jarayonida ma'noviy bog'liqlikni ta'minlagan.

Qardosh tillarda bitilgan she'riy asarlarning juda katta qismi shunday xususiyatga egaki, ularning matnidagi so'zlarning qariyb barchasi ikkinchi tilda ham uchraydi va shunga ko'ra tarjima tilida mavjud bo'lmagan ayrim so'zlarni almashtirish yo'li bilan o'girish orqali adekvatlikka erishish ham mumkin. Biroq bu “almashtirish” mexanik yumush bo'lmay, aksincha, ko'pgina hollarda mutarjimni san'atkor sifatida saralaydigan og'ir ijodiy izlanishdir. Binobarin, yaqin tillardan tarjima ham tarjima unsurlaridan holi emas. Chunki ayrim satrlar,

bandlar goh aynan, goh ba'zi so'zlarni almashtirish bilan deyarli o'zgarishsiz kechsa-da, tarjima o'quvchisiga tushunarsizligi jihatidan ba'zida misralarni, bandlarni o'zgartirishga to'g'ri keladiki, bu butun bandning tuzilishini o'zgartirish, boshqacha aytganda, she'rni chinakamiga tarjima qilish degani bo'ladi. Bu esa tabiiyki, ter to'kish, zahmat chekish, ijodiy izlanishni talab etadi. Chunonchi:

*Qara na'g'is ja'ga, qinama beshpent,
Qola'n qara shashlar jazip taslangan.
Qollar kóteriwli, julasar e'nk-e'nk,
Bir ulli azali qiyqiw baslangan.*

Shoirning **“Ossuarlar”** nomli she'ri uchinchi misrasida qo'llangan so'z-**“beshpent”** (qoraqalpoq qizlarining milliy kiyimi) o'zbek o'quvchisiga tushunarli emas. Binobarin, ularni aynan qoldirib bo'lmaydi. Demak, boshqa tushunarli so'zlarni topib, qofiyaga chiqarish kerak. Zulfiya tarjima jarayonida yana bir bor o'z mahoratini namoyon qiladi va **“beshpent”** so'zi o'rniga **“kamzul”** so'zini qo'llaydi. Bu esa bandning qurilishini ham, o'zgartirishga olib keladi. Bu ijodiy jarayon bo'lib, tarjima degani bo'ladi. Qiyoslang:

*Qora tus yoqali, xipcha bel kamzul,
Qulon qora sochlar, yoyiq, parishon.
Qo'llar ko'kga cho'ziq, dillar g'amdan zil,
Go'yo eshitaman yig'i, mung, fig'on.*

Ma'lum bo'ladiki, yaqin tillardan tarjimaga nisbatan ham tabdil emas, tarjima terminini qo'llagan maqsadga muvofiq. Chunki bu jarayonda tabdil va tarjima o'zaro uyg'inlikda namoyon bo'ladi. Sababi yaqin tillardan tarjimada ham tarjimon munosib so'z tanlaydi, o'quvchiga tushunarli qofiya izlaydi, misra va bandlarni qaytadan tuzadiki, bu jarayon ijodiy izlanishni taqozo etadi. Ana shu izlanish jarayonida mutarjim mahorat ko'rsatadiki, bu endi san'at bo'ladi. Shunday ekan, yaqin tillardan tarjimini ham kamsitmasligimiz, uni ham ijodiy ish, san'at deb hisoblashimiz kerak.

Qardosh tillardan tarjimada tarjimonlarimiz ko'pincha ana shu oddiy haqiqatni tushunib yetmaydilar yoki istamaydilar, balki buni ortiqcha, keraksiz ish deb hisoblaydilar. Holbuki, mana bunday “tarjima” qilib, har bir tushunarsiz so'zga matn ostiga izoh bergandan ko'ra asliyatning o'zini zarur shar izohlar bilan nashr etgan yaxshi emasmi?

Ibrayim Yusupov:

*Dosliq kúshli, bir-birine berilse,
Diydari'na qarayman da toymayman,
Ala tawdan aq qalpa'g'ín kórinse,
Qara tawdan qara qalpaq bil'gayman.*

Mirzo Kenjabek tarjimasi:

*Do'stlik kuchli, bir-biriga berilsa,
Diydoringga qarayman-u to'ymayman.
Olatovdan oq qalpog'ing ko'rinsa,
Qoratovdan qora qalpoq bilg'ayman.*

Ko‘rinib turganidek, bu yerda bor-yo‘g‘i birgina so‘z o‘zbek o‘quvchisiga tushunarsiz bo‘lib, tarjimon esa o‘shalarni ham tarjima qilish o‘rniga aynan qoldirib, matn ostida izoh bergan: **bilg‘ayman – qalpoqni aylantirib ishora bermoq.**

Agar yaqin tillardan tarjima – matnda mavjud barcha tanish so‘zlarni o‘z tilimizga o‘tkazib, notanish so‘zlarni satr ostida “izohlash”dan iborat bo‘lsa, o‘z-o‘zidan, tarjimaning bu turi nuqul nusxa ko‘chirishdan iborat ekan, degan xulosa kelib chiqadi. Basharti, chindan ham shunday bo‘lsa, yaqin tillardan tarjima qilib o‘tirishga hech qanday zarurat qolmaydi, desa ham bo‘ladi.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “Tasavvur haqqoniyligi va badiiy g‘oya mohiyati tig‘izlashuvi” deb ataladi. Chinakam iste’dod shunday xususiyatki, unda mahorat hayot materialini badiiy aks ettirishda rang-barang tasvir vositalaridan nechog‘li unumli foydalana olganligi bilan o‘lchanadi. She‘r cheklangan imkoniyatlarga egaligi bilan boshqa adabiy janrlardan jiddiy tavofutlanadi. Shoir unda inson hayoti solnomasini oraliq ijodiy quvvatda suvratlantiradi. Boshqacha aytganda, odamzod ruhoniy takomilidagi muhim qirralar badiiy shakl miqyosini belgilaydi. Unda lirik tasvir maydoni shartli va teran mohiyat sari yo‘naltiradi. Natijada odamzot turmush tarzi haqqoniyligi ifodani yaxlitlashtiradi. Shu nuqtai nazardan, adabiy talqin uyg‘un ifodasida qahramon shaxsiyatiga katta falsafiy-ijtimoiy umumlashma singdiriladi.

Tarjimashunoslikda shaklan o‘xshash, lekin ma‘nolari bir-biridan farq qiladigan so‘zlar soxta ekvivalentlar deb yuritiladi. Aslida bu tushuncha XIX asr oxirida ilk bor qayd etilib, XX asr boshlaridan e‘tiboran maxsus o‘rganila boshlangan. Fransuz lug‘atshunoslari M.Kesler va J. Derokini birinchi marta “Inglizcha- fransuzcha tarjimonlarning aldoqchi so‘zlari” degan lug‘at tuzgan edilar. Keyinchalik bu til hodisasini ifoda etish uchun boshqa terminlar ham paydo bo‘ldi. “Tillararo omonimlar”, “Tillararo analogizmlar”, “Ohangdosh so‘zlar”, “Aldoqchi so‘zlar” va boshqalar shular jumlasidandir. O‘zbek tarjimashunosligida ulardan “Aldoqchi so‘zlar” o‘zlashdi, deyish mumkin.

Taniqli tarjimashunos A.V.Fyodorov turli tillarda fanda ayrim so‘zlarninggina fonetik jihatdan o‘xshashligini soxta ekvivalent deb olgan bo‘lsa, G‘.Salomov bu termini tuzilishi jihatdan bir-biriga o‘xshash, ammo ma‘nosi jihatdan bir-biridan jiddiy tafovut qiladigan, ba‘zida bir-biriga zid bo‘lgan frazeologik iboralarga nisbatan qo‘llaydi. Rus olimi V.V. Akulenko bunday so‘zlarni tillararo omonimlar (shaklan o‘xshash, ammo ma‘nolari har xil so‘zlar) va tillararo paronimlar (so‘zlarning talaffuzdagi tasodifiy o‘xshashligi) kabi ikki guruhga bo‘lgan edi. Bu so‘zlarga misol tariqasida quyidagilarni keltirsak bo‘ladi: **qoraqalpoqchada arman orzu, duzde-boshqa joyda, qas-dushman, kabi so‘zlarni muvofiq ravishda armon, tuzda, qosh deb tarjima qilib bo‘lmaydi.** Bunday qilingan taqdirda asliyatda berilgan fikrni tarjimada ifodalab bo‘lmaydi.

Ko‘pgina turkiy tillarda, jumladan, o‘zbek va qoraqalpoq tillarida shakl jihatidan bir biriga o‘xshash ammo ma‘nolari jihatidan bir biridan farq qiluvchi so‘zlar ko‘p. Binobarin, “**Ko‘ngil-ko‘ngildan suv ichar**” she‘rida “*Aspang‘a ser*

salip baqsań” misrasini “Ko’kka sehr solib boqsang” (M. Ali) emas, balki “Ko’kka diqqat bilan boqsang” deb tarjima qilish kerak.

Aspańga, ser salip baqsań,

Juldızlar sóyleser aqsham.

Óziń bulaq bolip aqsań,

Kewil kewilden suw isher.

Ushbu banddagi *Aspańga, ser salip baqsań* misrasi tarjimada “Ko’kka sehr solib boqsang” tarzida beriladi.

Ko’kka sehr solib boqsang,

Yulduzlar so’ylashar oqshom.

O’zing buloq bo’lib oqsang,

Ko’ngil ko’ngildan suv ichar.?

